

3. Жирмунский В. М. Легенда о призвании певца // Сравнительное литературоведение: Восток и Запад. – Л.: Наука, 1979. – С. 397-407;
4. Гринцер П.А. Дренеиндейский эпос.–М.:1974. – С.15-31
5. Алпомиш.Ўзбек халқ қаҳрамонлик эпоси. Айтувчи Фозил Йўлдош ўғли.Нашрга тайёрловчи Тўра Мирзаев. –Тошкент: Фан, 1999.– 827 б
6. Гўрўғлининг тўғилиши. Айтувчи Муҳаммад Жомрот ўғли Пўлкан. Нашрга тайёрловчи: Малик Муродов. –Тошкент: Бадиий адабиёт нашриёти, 1967. –328 б.
7. Гомер.Одессия. Перевод с древнегреческого В.Жуковського.–М.: Правда, 1985. –320 с.
8. Гринцер. Эпос древнего мира // Типология и взаимосвязи литературы древнего мира.–М.: Наука, 1971.–С.134–205.
9. Дьяконов И.М. Эпос о Гильгамеше // Эпос о «Гильгамеш.–М.: Наука, 1961. – С.91.143.
10. Лорд Альберт. Сказитель. –М.: Восточная литература, 1994. –368 с.
11. Мирзаев Т. Халқ бахшиларининг эпик репуртуари. –Тошкент: Фан, 1979.–152 бет.
12. Reihl, Karl. Singing The Past: Turkic and Medieval Heroic Poetry. –Ithaca–London: Cornell University Press, 2000.
13. Reihl, Karl. Uzbek Epic Poetry: Tradition and Poetic Diction // Traditions of Heroic and Epic Poetry. Vol. II, Ed. by J. B. –Hainsworth, London, 1980-1989.–S. 94-120.
14. Саидов М. Ўзбек дostonларида бадиий маҳорат.–Тошкент: Фан, 1969. –264 б.
15. Ekici, Metin. Türk dünyasında Köroğlu.–Ankara: Akçag, 2004.–368 s.

ADABIY TURIZM – ABADIY TURIZM MEZONI

Maqsud Asadov,

O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti direktori
o'rinbosari, filologiya fanlari doktori, professor

Annotatsiya:Ushbu maqolada turizm turlari, adabiy turizmning ahamiyati, uni yuzaga keltirgan vositalar xususida fikrlar bildirilgan. Markaziy Osiyoda yagona sanalgan Folklor arxivi va undagi 3000 ga yaqin birlikdagi nomoddiy-madaniy meros namunalari, xalq og'zaki ijodi durdonalari, jumladan, baxshilar bisotidan yozib olingan dostonlar, umuman, adabiy turizmni rivojlantirishga xizmat qiladigan nomoddiy meroslarimiz haqidagi aniq fikrlar keltirib o'tilgan. Alisher Navoiy siymosi va u zot sharafiga qo'yilgan haykallarning turizm sohasiga ta'siri masalasiga ham to'xtalib o'tilgan. Adabiy turizmni rivojlantirish borasida qator taklif va mulohazalar berilgan.

Kalit so'zlar: Adabiy turizm, folklor, nomoddiy meros, madaniy meros, baxshi, festival, tadqiqot, haykal va haykaltaroshlik, muzahhib, byust, mahorat.

Kirish: Bugun O'zbekistonning jahon sivilizatsiyasiga integratsiyalashuv jarayoni har qachongidan-da kuchayib, turli xalqlar, millatlar va davlatlar bilan ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy aloqalari yanada mustahkamlanib bormoqda. Bu jarayonda, shubhasiz, turizmning birlashtiruvchi, o'zaro do'stlik, birodarlik ruhini kamol toptiruvchi beqiyos jihatini aslo unutmaslik lozim. Asrlar davomida shakllanib, dunyo tamadduni tarixida muhim o'rin egallagan ma'naviy qadriyatlar, geografik joylar, go'zal va so'lim go'shalarga intilish, ularni jonli tarzda ko'rish ishtiyoqi insoniyat uchun aslo begona emas. Buyuk mutafakkir va shoir Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida safar xususida shunday yozadi: "Safar mahjur (yiroq, ayrilgan – M.A.)larini matlub (maqsad, murod. – M.A.)ig'a yetkaruvchi va mahrumlarini murod uyig'a kivurguvchi va xomlarni pishirguvchi va taomlarni singurguvchi. Olam g'aroyibidin bahra yetkurguvchi va ofarinish (yaratish, vujudga kelish – M.A.) g'aroyib (ajoyib, hayron bo'ladigan – M.A.)ig'a ittilo (xabardorlik, ogohlik. – M.A.) berguvchi"... Demak, safar yoki turizm inson kamoloti, ya'ni uning ham jismoniy, ham ma'nan barkamolligiga xizmat qilishi tabiiy.

Turizm o'z tabiatiga ko'ra tashqi va ichki turizmga ajratilib, tasnif qilinishi ma'lum. Har ikki holatda ham insonda hayotga muhabbat, nekin kayfiyat uyg'onib, tabiat ajoyibotlari bilan yaqindan tanishishga imkon ochiladi. Qolaversa, turizm rivoji mamlakat taraqqiyoti, ya'ni uning moddiy manfaatlari, iqtisodiy yuksalishi uchun ahamiyatlidir. "O'zbekiston – 2030 strategiyasi"da O'zbekistonda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyohlar sonini oshirish chora-tadbirlari doirasida xorijiy turistlar sonini 15 millionga, ichki sayyohlar sonini 25 millionga, ziyorat turizmi bo'yicha keladigan turistlar sonini 3 million nafarga oshirish; xususiyl investitsiyalarni jalb qilish hisobiga respublikada 30 ta yirik turizm klasterlarini tashkil etish; mehmon o'rinlari sonini kamida 2 barobarga oshirish; tog'li hududlarda 25 ta dor yo'llari qurish, turizm mahallalari sonini 175 taga yetkazish; «Ko'hna tarix durdonalari» milliy dasturini ishlab chiqish hamda uning doirasida madaniy meros ob'ektini restavratsiya qilish, yodgorliklarda «ochiq osmon muzey»larini tashkil etish; mamlakatimiz miqyosida shaharlararo avtobus qatnovini ta'minlaydigan kompaniyalarni tashkil etishni yanada rag'batlantirish kabi bir qator masalalarining alohida belgilanishi bejizga emas. Buning zamirida hukumatimizning yurt ravnaqi, xalq farovonligini ta'minlash bilan bog'liq ezgu maqsadlari yotibdi.

Asosiy qism: Ayni paytda turizmning bir necha ko'rinishlari shakllanib, jamiyat hayotiga chuqurroq kirib bormoqda. Jumladan, ziyorat turizmi, eko-turizm qatoridan adabiy turizm atamasi ham muqim joy egalladi. Adabiyot azaldan ko'ngil obodligi, ruh munavvarligining yorqin timsoli bo'lib kelgan. Millat ma'naviy qiyofasining jonli ifodasi, eng avvalo, uning so'z san'atida, adabiyotida aks etadi. Turli xalqlarning qiziqishlari, hayotiy intilishlari, e'tiqodi borasida muayyan xulosalarga kelish uchun ularning san'ati va adabiyotini bilish, o'rganish talab etiladi. Shu ma'noda, adabiy turizm o'z mohiyatidan kelib chiqib, quyidagi vazifalarni hal etishi lozim:

- san'at, madaniyat va ma'naviyat mushtarakligini ta'minlash;
- sayohat, ziyorat va eko-turizm o'rtasida muhim bog'lovchilik vazifasini bajarish;
- adabiyot, san'at va ijodiy muhit rivojiga hissa qo'shish;
- xalqimizning ma'naviy qadriyatlariga, buyuk tarixiga bo'lgan qiziqishlarni yanada orttirib, yurtimizga sayyohlar oqimini ko'paytirish;
- "o'zbek", "O'zbekiston", "o'zbek xalqi" nomini butun dunyoning ziyoli qatlami vakillari orasiga olib kirish va vatanimiz madaniyatini keng targ'ib hamda tashviq qilish.

O'zbekiston – bir necha adabiy maktablarga beshik bo'lgan betakror o'lka. Qo'qon adabiy muhiti, Xorazm adabiy muhiti, Buxoro adabiy muhiti nomlari bilan shuhrat qozongan ma'naviy va ma'rifiy yuksalishlarning o'ziga xos o'rni hozirga qadar jahon ilm-fanining muhim tadqiqot ob'ektlari bo'lib kelmoqda. Bugungi kunda 200 jildlik "O'zbek adabiyoti durdonalari", 100 jilddan iborat "O'zbek xalq ijodi yodgorliklari", ko'p jildlik "Qoraqalpoq adabiyoti durdonalari" kitoblarining nashr etilayotgani, ulug' ajdodimiz hayoti, faoliyati va adabiy merosiga bag'ishlangan 30 jildlik "Istiqlol davri navoiyshunosligi" to'plami, 4 jildlik "Alisher Navoiy ensiklopediyasi"ning chop qilingani ham adabiy merosimiz miqyosining kengligini ko'rsatib turibdi. Yurtimizda bir necha baxshichilik maktablari shakllanib, so'z qudratining sehr-u jozibasini o'z san'atlari bilan namoyish etib kelishgan. Surxondaryo-Qashqadaryo, Xorazm baxshilarining o'ziga xos ijro mahorati ular orasida ovoz xususiyatlari, improvizatsiyaning jo'shqin va qiziqarliligi bilan ajralib turgan. Aytish o'rinliki, hozirda O'zbekiston Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutida Markaziy Osiyoda yagona sanalgan Folklor arxivi mavjud. Unda 3000 ga yaqin birlikdagi nomoddiy-madaniy meros namunalari, xalq og'zaki ijodi durdonalari, jumladan, baxshilar bisotidan yozib olingan dostonlar ham saqlanadi. Shubhasiz, bular adabiy turizm rivoji uchun muhim manba vazifasini o'tashi aniq. Adabiy turizm taraqqiyotida, jumladan, yana quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

- Qo'qon, Xorazm, Buxoro adabiy muhiti so'z san'ati va madaniy boyliklari bilan yaqindan tanishish imkonini beruvchi sayohat dasturlarini ishlab chiqish;
- O'zbekiston adabiy merosi haqida yorqin tasavvur beruvchi videoroliklar tayyorlash, ijtimoiy tarmoqlar orqali targ'ibot va tashviqot ishlarini kuchaytirish;

- adabiy festivallar, adabiyot kunlari va adabiyot kechalarini tashkil etish;
- “adabiy turizm.uz” elektron platformasini ishga tushirish va mobil ilovasini yaratish;
- ziyorat turizmi, eko-turizm va adabiy turizmni bir-biridan ajratmagan holda yaxlit, bir butunlikda sayohat rejalarini shakllantirish;
- adabiy turizm, uning tamoyillari, o'ziga xosligi va ahamiyatini ochib beruvchi ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish lozim.

Biz o'tmishda yashab ijod qilgan buyuk shoir-u adiblarimiz, ijod ahli bilan har tomonlama faxr-iftixor tuysak, to'la arziydi. Ularning sarxayli, millatimiz ma'naviyatining porloq quyoshi, shubhasiz, Alisher Navoiydir. Mamlakatimizdagi ko'plab kutubxona va qo'lyozma fondlarida ulug' so'z san'atkorining qo'lyozma, toshbosma asarlari ham saqlanadiki, bu sayyohlarda qiziqish-u ishtiyoqning ortishiga sabab bo'lishi turgan gap. Navoiy siymosi badiiy adabiyot, teatr, kino, rassomchilik va haykaltaroshlik san'atlariga ham ko'chib, chinakam mahobat kasb etgan. Ko'rinadiki, adabiy turizm faqat adabiyot chegarasida torayib qoladigan tushuncha emas, uni kengaytirish, jonlantirish va unga qanday munosabatda bo'lishi bu endi o'zimizga bog'liq masala. Masalan, haykaltaroshlik yo'nalishida yaratilgan Alisher Navoiy siymosiga e'tibor qilish ham adabiy turizm borasidagi qarashlarimizni yanada aniqlashtiradi.

Alisher Navoiy: haykallar va haykaltaroshlik

Haykaltaroshlik san'atida buyuk mutafakkir va shoir Alisher Navoiyning jonli qiyofasini yaratish borasida e'tirofqa loyiq ishlar qilingan. Shunday haykallardan biri va eng muhtashami poytaxtning Milliy bog'ida o'rnatilgan (1991). Ushbu haykal mualliflari samarqandlik haykaltaroshlar Enulla Aliev, Nodir Bandeladze, Vasiliy Gegcharevlardir. Bu ulkan san'at asari milliy sharqona uslubda, bronzadan ishlangan bo'lib, Milliy bog'ning eng ko'rkam va baland qismiga joylashtirilgan. Mazkur yodgorlik bilan haykaltaroshlar o'zbek haykaltaroshligi san'atiga o'ziga xos yangilik – me'moriy-haykaltaroshlik majmuasini olib kirdilar. San'at asarida buyuk mutafakkir va shoirning fozillik alomatlari o'z ifodasini topgan. Ramziy ma'noda barpo etilgan me'moriy [unsur – gumbaz](#) esa Alisher Navoiyning mahobatli qiyofasini yanada buyuklashtirgan. Haykal mohirona uslubda, yaxlitlik yo'nalishida bajarilgan, ya'ni mayda bo'laklarga kamroq e'tibor qaratilgan. Faqatgina ko'krak va yuz qismida hamda liboslar burmalaridagina ayrim detallar [maydaroq ishlanganki](#), ular orqali mualliflar shoirdagi keksalik alomatlarni yorqin tarzda ochib berishga harakat qilishgan. Uzoq masofadan turib, shoirdagi keksalik alomatlarini hasa vositasida ham idrok etish mumkin. [Haykalga yaqinlashgan sari](#) hassadagi bu xususiyatlar ikkinchi darajaga o'tib, shoirning ma'noli chehrasi, ulug'vor qiyofasi ko'zga yaqqol tashlana boshlaydi. Ko'shk tipidagi me'moriy majmuadan odamlar oldiga peshvoz chiqib kelayotgan Mir Alisher Navoiy gavdalantirilib, ko'shkning gumbaz ostiga mutafakkir shoirning basharyatga qarata aytgan do'stlikdan qudratli kuch yo'q ma'nosini ifodalagan hikmatli so'zlari turli tillarda o'yib yozilgan.

Haykaltaroshlik sohasida Alisher Navoiy obrazini yaratish o'ziga xos san'at darajasiga ko'tarilgan, desak aslo xato bo'lmaydi, albatta. Yurtimizning ko'plab shaharlarida ulug' shoirga qo'yilgan haykallar fikrimizning yorqin isbotidir. Jumladan, Chirchiq shahridagi Navoiy haykali A.Rahmatullaev va L.Rabichev (1991)larning yorqin ijod mahsuli sifatida e'tirof etiladi. 2001 yilda Navoiy shahri markazida ulug' shoirning 560 yilligi munosabati bilan A.Rahmatullaev va P.Podosinnikov tomonidan yaratilgan 9 metrli haykalning o'rnatilishi ham tarixiy hodisalardan biri bo'ldi.

Haykaltaroshlikning mahobatli turida sermahsul asarlar yaratayotgan [ijodkorlar orasida akademik](#), O'zbekiston xalq rassomi, haykaltarosh Ilhom Jabborov va O'zbekiston xalq rassomi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, Bobur nomidagi xalqaro mukofot laureati, O'zbekiston Badiiy Akademiyasi a'zosi Ravshan (Jaloliddin) Mirtojievlarining alohida o'rni bor. Ular tomonidan yaratilgan yodgorliklarni mamlakatimizning aksariyat viloyat va shaharlarida uchratish mumkin. Jumladan, 2016 yilda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyot universiteti tashkil etilib, uning hovlisida aynan Ilhom Jabborov tomonidan yaratilgan Alisher Navoiyning mahobatli haykali o'rnatildi (5 metr, gips).

Haykaltarosh X.Husnuddinxo'jaev ijodining yorqin namunasi bo'lgan Samarqand shahridagi "Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy" haykali ham alohida tahsinga loyiq. Bu muhtasham yodgorlik V.Lunev va M.S.Bulatov rahbarligidagi bir guruh me'morlarning o'zaro ijodiy hamkorligida yaratilgan. Haykal ikki qardosh xalq: o'zbek bilan tojik xalqining azaliy do'stlik g'oyasi ifodasidir. Navoiy haykallarining aksariyati bronzadan ishlangan bo'lsa, Samarqanddagi haykal qizil granit toshdan yasalgani bilan ulardan farqlanadi. Haykaltaroshlikda granit toshi bilan ishlash anchagina mashaqqatli mehnat talab qilishini ham aytish joiz.

Haykaltaroshlikda Alisher Navoiyning mo'jaz qiyofasini yaratish, shuningdek, o'ziga xos san'at ansablini tiklash borasida ham bir qator ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, P.Chelishev yaratgan "Alisher Navoiy" (1961 – 1964, gips) byusti va Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumanida o'rnatilgan (1960-yillarda) Alisher Navoiy monumenti haykaltaroshlik san'atining go'zal namunalari sanaladi.

Xulosa: Darhaqiqat, O'zbekiston haykaltaroshlari bir necha bor Navoiy obraziga murojaat etganlar, biroq A.Shaymurodov yaratgan obraz xarakterli. Ya'ni haykaltarosh ulug' shoir dunyosini tushunishga ko'p marotaba uringan, uning har galgi faoliyatida komil shaxs siymosi sayqal topib, mumtoz ko'rinishga kirib borgan. Bular orasida atoqli olim Hamid Sulaymon tavsiyasiga ko'ra mashhur musavvir Mahmud Muzahhib asari asosida ishlangan haykal, ayniqsa, diqqatga sazovordir. A.Shaymurodov Navoiyning mo'jaz kitobat san'atida tasvirlangan qiyofasini haykaltaroshlikdagi qulaylik – plastik xususiyatlar (nur-soya, hajm va b.) yordamida muvffaqiyatli gavdalandira olgan. Haykal keng jamoatchilik tomonidan e'tirof etildi. U hatto Moskvadagi nufuzli ko'rgazmada kumush medal bilan taqdirlandi. Haykalda buyuk mutafakkirning ichki siyrati mohirona talqin etilgan, ayniqsa, yuz tuzilishining nuroniyligi, qosh-ko'zlarining ma'noli ifodasi haykaltarosh tomonidan nozik his qilingan. Haykalda Navoiyning muborak boshi biroz quyiga indirilgani estetik ta'sirchanlikni yanada oshirgan. Shubhasiz, mazkur san'at asari Navoiy dahosini haykaltaroshlikka ko'chirish borasida erishilgan eng muhim yutuqlardan biridir. Haykaltaroshning 1960-yillarda yaratilgan "Alisher Navoiy" (2 ta: SamDU va Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi, marmar) kabi haykallari ham realistik yo'nalishning milliy sayqallangan namunalaridandir.

Demak, ulug' shoir haykallari bilan tanishtirish asnosida uning adabiy, ilmiy merosi, faoliyati haqida sayohatchilarga atroflicha ma'lumot berish ham adabiy turizm sohasi rivojida katta ahamiyat kasb etadi. Bu birgina misol, xolos. Adabiy turizm sayohat madaniyatini to'la-to'kis qamrab olgan abadiy turizm bo'lishi, millatning millat sifatidagi mavqeini olamga ko'z-ko'z qilishda yetakchi rol o'ynashi va mamlakat taraqqiyotiga katta hissa qo'shishi shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

8. "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekistin Respublikasi Prezidenti Farmoni PF-4861.

9. Quronov, M., To'rayev, R. O'zbekiston turizm sohasining rivojlanishi va istiqbollari. – Toshkent: Fan, 2021.

10. H.R. Hamroyev, Turizmologiya / [Matn]: o'quv qo'llanma / Buxoro : "BUXORO DETERMINANTI" MCHJning Kamolot nashriyoti, 2023. - 236 b.

11. ALISHER NAVOIY VA XXI ASR mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari; / mas'ul muharrir Shuhrat Sirojiddinov. – 2020, 2021, 2022, 2023, 2024, 2025.

12. Qobilova, Z. (2024). ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING OZARBAYJONDA O'RGANILISHI. Hamkor konferensiyalar, 1(1), 215-219.

13. Alisher Navoiy adabiy va ilmiy merosini o'rganish masalalari / – "Yashil yaproq nashriyoti". – Toshkent, 2025. – 533 b.

14. Bakirovna, K. Z. (2019). The Rhythm of the Literary Impact. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 8(9), 58-67.